

Date: 21st January-2026

**OILADA BOLALARNI MILLIY TARBIYA ASOSIDA TARBIYALASHDA
GENDER QARASHLAR TA'SIRI**

Yangiboyeva Madina Oybek qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv
va texnologiyalar universiteti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada bolalarni milliy tarbiya asosida tarbiyalash jarayonida gender qarashlarning o'rni va ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy qadriyatlar, an'anaviy gender rollari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi masalalari yoritilgan. Shuningdek, oila muhitida qiz va o'g'il bolalarni tarbiyalashda tenglik, mas'uliyat va ijtimoiy rollarni shakllantirishning pedagogik jihatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, oilaviy tarbiya, gender qarashlar, gender rollari, bolalar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, pedagogik yondashuv

Аннотация. В статье анализируется влияние гендерных взглядов на воспитание детей в семье на основе национальных ценностей. Рассматривается взаимосвязь традиционных гендерных ролей, национальных традиций и современных педагогических подходов. Особое внимание уделяется вопросам формирования равенства, ответственности и социальных ролей мальчиков и девочек в семейной воспитательной среде.

Ключевые слова: национальное воспитание, семейное воспитание, гендерные взгляды, гендерные роли, воспитание детей, национальные ценности, педагогический подход

Abstract. This article analyzes the influence of gender perspectives on raising children in the family based on national values. The study explores the relationship between traditional gender roles, national traditions, and modern pedagogical approaches. Special attention is given to the formation of equality, responsibility, and social roles of boys and girls within the family educational environment.

Keywords: national upbringing, family education, gender perspectives, gender roles, child upbringing, national values, pedagogical approach.

Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va madaniyatlararo integratsiya sharoitida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish jarayonida oila muhim ijtimoiy institut sifatida yetakchi o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya siyosatida oilaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu nuqtai nazardan, oilada bolalarni milliy tarbiya asosida tarbiyalashning nazariy-pedagogik



Date: 21st January-2026



asoslarini chuqur o'rganish, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Bugungi kunda oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarni pedagogik jihatdan asoslash hamda zamonaviy tarbiya jarayoniga moslashtirish zaruratidan kelib chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli farmoni,⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni,⁸ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni⁹, 2019 yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori¹⁰, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori¹¹, 2020 yil 6-iyundagi 422-son Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori¹², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020 yil 6-nayabrdagi PQ-4884-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaror¹³larida tarbiya masalalarining huquqiy asoslarini belgilangan. Shuningdek, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da yoshlarda milliy tarbiyani rivojlantirish va dunyoqarashni shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bular ta'limda tarbiya samaradorligini oshirishga doir yangi yondashuvlar va metodikalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bola tarbiyasi masalasi Sharq va G'arb pedagogik tafakkurida doimo dolzarb bo'lib kelgan. Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, asarlarida oilaning shaxs kamolotidagi o'rni, ota-onaning tarbiyadagi mas'uliyati keng yoritilgan.

Bola tarbiyasi muammolari o'zbekistonlik va xorijiy izlanuvchilarning ko'plab tadqiqotlari predmeti bo'lgan. Mamlakatimizda bu yo'nalishda V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, R.I.Sunnatova, T.G.Yadgarova, U.S.Saribaeva, M.S.Salaeva,

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" farmoni 2017-yil 7-fevral PF-4947-son. <https://lex.uz/docs/-3107036>

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni 2019-yil 8-oktabr PF-5847-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

⁹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr O'RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/-5013007>

¹⁰ "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 2019 yil 31-dekabrda 1059-son

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son

¹² Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 2020 yil 6-iyundagi 422-son

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori 2020 yil 6-noyabr PQ-4884-son

Date: 21st January-2026

G.A.Qurbanova, G.V.Xrulnova, X.K.Karimov, F.R.Ro'ziqulov, O.A.Abdusattorova, R.N.Xikmatullaeva, M.X.Fayzieva, O.B.Shamsievlarning ilmiy izlanishlarida yoshlarning oilaviy hayotga psixologik tayyorligi, er-xotin munosabatlarida nizolar va ularning oila muhitiga, farzandlar psixik rivojlanishiga ta'siri, oiladagi shaxslararo munosabatlarning tarbiya bilan bog'liq muammolari, o'zbek oilalarida ota-ona va bola munosabatlariga xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni aniqlash, bolalarning ijtimoiylashuvi kabi masalalar o'rganilgan.

Respublikamiz olimlari tomonidan ta'lim tarbiya masalalari keng o'rganilgan bo'lib, E.To'raqulov, S.Rahimov, I.Yuldoshev oila, mahalla va maktab hamkorligida tarbiyaviy ishlar sammaradorligini oshirish metodikasini o'rgangan. G Karimova, F.Bahordinova, S.Soibjonovalar tomonidan oila sotsiologiyasida oiladagi ijtimoiy muhit ustida o'rganish ishlari olib borilgan. I.Arzimatova, J.Muminovlar tomonidan istetik tarbiya, san'at ta'sirida istetik tarbiyani rivojlantirish, globalizatsiya sharoitida tarbiyani takomillashtirish mexanizmlari ilmiy jihatdan o'rganilgan. A.R.Abdullaeva, G.Karimova, F.Bahordinova, S.Soibjonovalar tomonidan oila sotsiologiyasida oiladagi ijtimoiy muhit ustida o'rganish ishlari olib borilgan. I.Arzimatova, J.Muminovlar tomonidan istetik tarbiya, san'at ta'sirida istetik tarbiyani rivojlantirish, globalizatsiya sharoitida tarbiyani takomillashtirish mexanizmlari ilmiy jihatdan o'rganilgan.

F.Karimov, A.Xolmurodovlarning tadqiqotlarida bolaning psixologik holatini anglash, pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish, sabr, mehr va muloqot madaniyatini uyg'unlashtirish qobiliyati - tarbiyaning sifatini belgilovchi asosiy mezondir deb qaralgan. M.Melikulova milliy qadriyatlarning oila va yoshlar tarbiyasidagi o'rni tahlil qilingan, kelurga muhitining tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. U.M.Lukmanovna oila ichida milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy jarayonlar nazariy asoslari tadqiq qilingan. G.M.Almuratova jadid pedagoglari qarashlarida milliy tarbiya nazariy asoslari va ma'naviy qadriyatlarni tahlil qilgan. M.Ilkhomov milliy tarbiyaning ta'lim tizimidagi roli va tarixiy pedagogik asoslarini o'rgangan. F.D.Narimanova o'zbek oilalarida milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonda qo'llash asoslari ustida izlanishlar olib borgan. Z.R.Jiyenbaeva oilaviy tarbiya va milliy fazilatlarining bolalar shaxsiyatiga ta'sirini o'rgangan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlari P.A.Низамов Д.Ж.Сафиязова, 3.Т.Ғасановлар tarbiya kontekstida milliylik, milliy tarbiyaning o'ziga xos jihatlari, milliy an'analar asosida tarbiya berish mexanizmlari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlar jadallashgan sharoitda oilada bolalar tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek oilalarida tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida gender qarashlar alohida ahamiyat kasb etadi. An'anaviy jamiyatlarda qiz va o'g'il bolalarni tarbiyalashda turlicha yondashuvlar shakllangan bo'lib, bu holat bolalarning shaxsiy rivoji, ijtimoiy faolligi va kelajakdagi hayotiy pozitsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



Date: 21st January-2026

Shu bois, oilada bolalarni milliy tarbiya asosida tarbiyalashda gender qarashlarning o'zni va ta'sirini o'rganish, ularning ijobiy jihatlarini saqlagan holda zamonaviy pedagogik talablar bilan uyg'unlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Milliy tarbiya — bu bolalarda milliy o'zlikni anglash, urf-odatlariga hurmat, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. O'zbek oilalarida milliy tarbiya asosan oilaviy muhit, ota-onaning shaxsiy namunalari, an'ana va marosimlar orqali amalga oshiriladi.

Gender qarashlar esa jamiyatda erkak va ayollarga nisbatan shakllangan ijtimoiy rollar, mas'uliyat va xulq-atvor me'yorlarini ifodalaydi. O'zbek oilalarida an'anaviy gender qarashlar ko'pincha o'g'il bolalarda jasorat, mas'uliyat, oilaparvarlik; qiz bolalarda esa ibo-hayo, mehribonlik, uy-ro'zg'or ishlariga moyillik kabi fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'zbek oilalari misolida kuzatilganda, gender qarashlar bolalar tarbiyasida ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ular milliy qadriyatlarni avloddan avlodga uzatishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, o'g'il bolalarni mehnatsevarlikka, oilani himoya qilishga o'rgatish, qiz bolalarni esa oila muhitini asrash, mehr-oqibatli bo'lishga yo'naltirish milliy tarbiyaning muhim jihatlaridandir.

Ikkinchidan, gender qarashlar ayrim hollarda bolalarning qobiliyat va imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Masalan, faqatgina an'anaviy rollarga asoslangan tarbiya qiz bolalarning ijtimoiy faolligini yoki o'g'il bolalarning emotsional rivojini yetarlicha qo'llab-quvvatlamasligi ehtimoli mavjud. Shu sababli, zamonaviy o'zbek oilalarida gender tenglik tamoyillarini milliy tarbiya bilan uyg'unlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Oilada bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarni saqlagan holda gender tenglikka asoslangan yondashuvni joriy etish tarbiya samaradorligini oshiradi. Bunda qiz va o'g'il bolalarga bir xil mehr, ta'lim olish imkoniyati va shaxsiy rivoj uchun sharoit yaratish muhim hisoblanadi.

Ota-onalar bolalarga milliy an'analarga hurmat ruhini singdirar ekan, ularning qiziqishlari va individual imkoniyatlarini inobatga olishi lozim. Bu esa bolalarda o'ziga ishonch, ijtimoiy faollik va ma'naviy barkamollikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek oilalarida bolalarni milliy tarbiya asosida tarbiyalash jarayonida gender qarashlar muhim pedagogik omil hisoblanadi. An'anaviy gender yondashuvlar milliy qadriyatlarni saqlashga xizmat qilsa-da, ularni zamonaviy pedagogik talablar va gender tenglik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish zarur. Oilada qiz va o'g'il bolalarni milliy qadriyatlar asosida, teng huquq va imkoniyatlarga ega shaxslar sifatida tarbiyalash jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Melikulova M. The Role of the Family in Promoting National Values in the Education of Youth. International Journal of Advanced Research 8(03), 47–49, 2020.



Date: 21st January-2026

2. Almuratova G. M. Pedagogical Aspects of National Upbringing in the Educational Activities of the Jadids // *Int. J. Pedagogics*. 2025.
3. Ilkhomov M. The Importance of National Education in the Educational System // *Eur. Int. J. Pedagogics*. 2025.
4. Narimanova F. D. Pedagogical Foundations of Using National Values in Raising Children in Uzbek Families // *Multidiscip. J. Sci. Technol.* 2025, vol. 5, no. 2, pp. 648–650.

